



**JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Jizzax viloyatida jami **2 845,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



813

Bino va inshootlar
qurilishi

342

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

397

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 72,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 52,4 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurilish yo'nalishi 22,0 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,6 foiz ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2022- y.	01.10.2023- y.	
Jizzax viloyati	2 143	1 552	72,4
Jizzax sh.	897	602	67,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	53	43	81,1
Baxmal	69	57	82,6
G'allaorol	163	122	74,8
Sh. Rashidov	353	228	64,6
Do'stlik	71	52	73,2
Zomin	134	109	81,3
Zarbdor	114	87	76,3
Zafarobod	32	29	85,7
Mirzacho'l	56	48	90,6
Paxtakor	85	84	98,8
Forish	78	68	87,2
Yangiobod	38	23	60,5



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Jizzax sh. (38,8)



Sh.Rashidov (14,7)



G'allaorol (7,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar - sentabr uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	2845454,4	170 495,1	2 113 973,0	560 986,3
Jizzax sh.	1 273 886,0	125 240,4	1 068 402,5	80 243,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	45 019,8		23 531,7	21 488,1
Baxmal	104 452,1		46 124,6	58 327,5
G'allaorol	143 922,5		83 786,3	60 136,2
Sh. Rashidov	488 371,2		413 925,7	74 445,5
Do'stlik	72 377,7		45 956,9	26 420,8
Zomin	241 528,8	43 589,9	149 451,9	48 487,0
Zarbdor	89 166,7		45 601,6	43 565,1
Zafarobod	38 986,0	53,3	9 412,3	29 520,4
Mirzacho'l	53 258,7	1 611,5	25 283,7	26 363,5
Paxtakor	142 372,9		109 661,2	32 711,7
Forish	132 886,9		82 948,6	49 938,3
Yangiobod	19 225,1		9 886,0	9 339,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 170 495,1 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilga nisbatan 127,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,0 % punktga ko'payib, 6,0 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- sentabr uchun




Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 25,6 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,3 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 107,7 % ni tashkil etgan holda 2 113 973,0 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



74,3

2023- yil yanvar-sentabr

73,5

2022- yil yanvar-sentabr




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jizzax shahri (1 068 402,5 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 50,5 %), Sh.Rashidov tumani (413 925,7 mln. so'm yoki 19,6 %), Zomin tumani (149 451,9 mln. so'm yoki 7,1 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi yoki **560 986,3** mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **90,2 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **9 996,7** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 835 457,7** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.


2022- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr




Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar - sentabr oylarida





Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar - sentabr oylarida



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar - sentabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,7 %** i yoki **2 296 117,5** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

4,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **91 414,0** mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 706 239,1** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **74,3 %** ni tashkil etdi.

74,3%

21,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **498 464,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **21,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar – sentabr oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so‘m	O‘sish sur‘ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Jizzax viloyati	2 845 454,3	105,0	2 296 117,5
Jizzax sh.	1 273 885,9	110,3	1 027 952,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	45 019,8	121,9	36 328,4
Baxmal	104 452,1	102,7	84 286,8
G‘allaorol	143 922,5	94,8	116 137,2
Sh. Rashidov	488 371,2	101,3	394 087,4
Do‘stlik	72 377,7	122,8	58 404,6
Zomin	241 528,8	100,4	194 899,8
Zarbdor	89 166,7	95,5	71 952,4
Zafarobod	38 986,0	101,4	31 459,5
Mirzacho‘l	53 258,7	100,4	42 976,7
Paxtakor	142 372,9	100,8	114 886,7
Forish	132 886,9	102,0	107 232,1
Yangiobod	19 225,1	65,0	15 513,5


**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,4 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi, 71,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi, 23,7 % ni tashkil etdi.




Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 15,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 9,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 84,5 % (9,8 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi (0,1 % punktga kamaydi).

ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 3,9 % punktga kamaydi va 0,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 100,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 3,9% punktga ko'paydi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar - sentabr

	Qurilish ishlari, mln. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	2 845 454,3	2 363 150,8	291 644,2	190 659,3
Jizzax sh.	1 273 885,9	1 057 962,5	130 566,7	85 356,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	45 019,8	37 389,0	4 614,3	3 016,5
Baxmal	104 452,1	86 747,5	10 705,8	6 998,8
G'allaorol	143 922,5	119 527,7	14 751,3	9 643,5
Sh. Rashidov	488 371,2	405 592,5	50 055,5	32 723,2
Do'stlik	72 377,7	60 109,7	7 418,3	4 849,7
Zomin	241 528,8	200 589,8	24 755,4	16 183,6
Zarbdor	89 166,7	74 053,0	9 139,1	5 974,6
Zafarobod	38 986,0	32 377,9	3 995,9	2 612,2
Mirzacho'l	53 258,7	44 231,4	5 458,7	3 568,6
Paxtakor	142 372,9	118 240,7	14 592,5	9 539,7
Forish	132 886,9	110 362,6	13 620,2	8 904,1
Yangiobod	19 225,1	15 966,5	1 970,5	1 288,1

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi*

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73